

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2026-yil 5-avgustdagi 05/61-6590-sonli xati ijrosini ta’minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2026-yil 5-avgustdagi 05/61-6590-sonli xati ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2026-yil 5-avgustdagi 05/61-6590-sonli xati ma’lumot va ijro uchun qabul
qilinsin.

2. Qarshi davlat universitetida faoliyat olib borayotgan tyutorlar o‘rtasida
o‘rnatilgan tartibda turli nominatsiyalarda “Eng yaxshi tyutor” tanlovi yuqori
saviyada tashkil etilsin.

3. “Eng yaxshi tyutor” tanlovini o‘tkazish to‘g‘risidagi Nizom 1-ilovaga,
Tashkiliy ishchi guruh 2-ilovaga, tanlovning universitet bosqichini o‘tkazish
bo‘yicha Hakamlar hay’ati tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi
prorektor (O. Kuziyev), Yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i (N.Pardaqulov)
barcha fakultetlar dekanlariga:

- “Eng yaxshi tyutor” tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha e’lon
berish, tyutorlar o‘rtasida keng ko‘lamda targ‘ib qilish, tanlovda ishtirok etish
uchun ariza topshirgan tyutorlarning tanlovda faol ishtirokini tashkil etish hamda
tanlovning shaffof o‘tkazilishini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor (M.Mansurov), bosh hisobchi
(A. Shodiyev), Reja-moliya bo‘limi boshlig‘i (S.Xolboyev)larga:

- “Eng yaxshi tyutor” tanlovini har bir nominatsiyalari bo‘yicha (1-, 2-, 3-)
o‘rinlarni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar diplom va esdalik sovg‘alar, shuningdek,
1-o‘rin uchun 5 000 000 (besh million) so‘m, 2-o‘rin uchun 4 000 000 (turt
million) so‘m, 3-o‘rin uchun 3 000 000 (uch million) so‘m miqdorida

universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan moddiy rag'batlantirish vazifasi yuklatilsin.

6. Universitet matbuot kotibi (O.Yusupov)ga:

- tanlovning barcha bosqichlari ommaviy axborot vositalari hamda universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida keng yoritib borish vazifasi yuklatilsin.

7. Ushbu buyruq bandlari bo'yicha edo.ijro.uz tizimi orqali mas'ullarni belgilash va topshiriqlarni ijrochilarga o'z vaqtida yo'naltirish Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i B.Jumayev zimmasiga yuklatilsin.

8. Universitet devonxona mudirasi (G. Gafiatulina)ga:

Mazkur buyruqni o'rnatilgan tartibda barcha mas'ullarga o'z vaqtida yetkazish vazifasi yuklatilsin.

9. Ushbu buyruq ijrosining nazorati Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor O. Kuziyev zimmasiga yuklatilsin.

Rektor

D.Nabiyev

Qarshi davlat universitetida faoliyat yuritayotgan tyutorlar o‘rtasida “Eng yaxshi tyutor” tanlovini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi

NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Qarshi davlat universitetida faoliyat yuritayotgan tyutorlar o‘rtasida “Eng yaxshi tyutor” tanlovini (keyingi o‘rinlarda – Tanlov) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

2. Tanlovning asosiy maqsadi – Qarshi davlat universitetida faoliyat olib borayotgan, kasbiy mahorati, ilg‘or tajribasi va ijodkorlik qobiliyati bilan ajralib turuvchi, o‘z kasbiga sadoqatli, mas’uliyatli, mehnatsevar hamda tashabbuskor tyutorlarni aniqlash, ularning salohiyatini keng jamoatchilikka namoyish etish, tyutorlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, tanlov jarayonida eng faol va namunali ishtirokchilarni munosib rag‘batlantirishdan iborat.

3. Tanlovning vazifalari quyidagilardan iborat:

o‘z kasbiga sadoqatli, mas’uliyatli, mehnatsevar va tashabbuskor tyutorlarni aniqlash hamda ularning faoliyatini belgilangan normativ mezonlar asosida baholash;

tyutorlik faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy pedagogik, psixologik va tashkiliy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish;

tyutorlarning kitobxonlik, tashabbuskorlik va targ‘ibotchilik yo‘nalishlaridagi faoliyatini baholash hamda ularni rag‘batlantirish.

III. Tanlovni o‘tkazish tartibi, bosqichlari va muddatlari

4. Tanlov jarayonining barcha bosqichlarini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida universitet rektori (direktori) raisligida **Tashkiliy ishchi guruh** shakllantiriladi.

5. Tashkiliy ishchi guruh qaroriga muvofiq, har bir bosqichda ishtirokchilarni shaffof va adolatli baholashni ta‘minlash uchun soha mutaxassislaridan iborat **Hakamlar hay‘ati** tarkibi shakllantiriladi.

6. Tanlov quyidagi ikki bosqichda o‘tkaziladi:

fakultet bosqichi;

oliy ta‘lim tashkiloti bosqichi.

Fakultet bosqichi – har yili **oktabr oyining ikkinchi o‘n kunligida**

fakultet tyutorlari o'rtasida o'tkaziladi. Ushbu bosqich yakunlariga ko'ra 1-, 2- va 3-o'rin g'oliblariga keyingi bosqichda ishtirok etish uchun yo'llanma beriladi.

Universitet bosqichi (yakuniy) – fakultet bosqichi g'oliblari o'rtasida har yili **noyabr oyining uchinchi o'n kunligi** davomida o'tkaziladi. Yakuniy natijalar ishtirokchilar to'plagan ballarni yuqoridan pastga qarab ketmaketlikda aniqlanadi.

7. Tashkiliy ishchi guruh raisi tanlovning barcha bosqichlarida ishtirokchilarning shaffof va adolatli baholanishini ta'minlash uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

IV. Tanlovni o'tkazish nominatsiyalari va baholash tartibi

8. Tanlov quyidagi uch nominatsiyada o'tkaziladi:

a) “Eng faol targ'ibotchi tyutor” – ushbu nominatsiyada tyutorning oliy ta'lim tashkilotida talaba-yoshlarda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, milliy istiqlol g'oyalariga sadoqat, yuqori ma'naviyat va madaniyat, zamonaviy bilim va kasb-hunarni puxta egallashga intilishni shakllantirish borasidagi targ'ibotchilik faoliyati hamda bu yo'nalishda erishgan natijalari kompleks tarzda baholanadi.

Baholash jarayonida tyutorning tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etishi, targ'ibot faoliyatidagi namunaviy ishlari, tashabbuskorligi, tashkilotchilik qobiliyati, shuningdek uning tashabbusi bilan amalga oshirilgan tadbirlarning mazmun-mohiyati va erishilgan yutuqlari inobatga olinadi.

b) “Eng faol kitobxon tyutor” – ushbu nominatsiyada Ishchi komissiya tomonidan vazifa sifatida berilgan asarlar bo'yicha tyutorning kitobxonlik madaniyati va savodxonligi, mutolaa bo'yicha shakllangan ko'nikmalari, o'zbek adabiyoti hamda jadidchilik harakati namoyandalari haqidagi bilim va mulohazalari savol-javob va test orqali baholanadi.

c) “Eng faol tashabbuskor tyutor” – bu nominatsiyada tyutorning ishga bo'lgan mas'uliyati, tyutorlik faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tashabbuslari, tyutorning shaxsiy tashabbusi bilan ilgari surilgan takliflarning amaliyotga tatbiq etilganligi, hamkasblaridan ajralib turuvchi o'ziga xos jihatlari va boshqa muhim ko'rsatkichlar ham baholanadi.

9. Ishchi komissiya tomonidan har bir nominatsiyada ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha maxsus **baholash varaqasi** ishlab chiqiladi.

V. Hujjatlarni taqdim etish tartibi

10. Tanlovda ishtirok etuvchi tyutorlar quyidagi hujjatlarni belgilangan tartibda Ishchi komissiyaga taqdim etadilar:

Tyutorning to'liq professional portfoliosi – kasbiy faoliyati, amaliy, ijtimoiy va ma'naviy loyihalardagi ishtiroki, erishgan yutuqlari va sertifikatlari; Nominatsiya bo'yicha tegishli hujjatlar – tanlovda ko'rib chiqiladigan masalalarni

tasdiqlovchi materiallar;

Foto va video dalillar – tyutorning amaliy faoliyati, tadbirlari, treninglari va loyihalarini yorituvchi materiallar.

11. Barcha hujjatlar elektron shaklda (PDF yoki ZIP formatida) yoki qog‘oz ko‘rinishida, to‘liq, sifatli va tartibli holda taqdim etilishi shart.

12. Taqdim etilgan hujjatlarning haqqoniyligi va to‘g‘ri rasmiylashtirilishi uchun ishtirokchi shaxsan javobgar hisoblanadi.

VI. Tanlov g‘oliblarini taqdirlash

13. Tanlovning fakultet bosqichida 1-, 2- va 3-o‘rinlarni egallagan ishtirokchilar ichki imkoniyatdan kelib chiqqan holda fakultet dekani tomonidan diplom va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlanadi.

14. Tanlovning universitet (yakuniy) bosqichida har bir nominatsiya bo‘yicha yuqori (1-, 2-, 3-) o‘rinlarni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar oliy ta‘lim tashkiloti rektori (direktori) tomonidan diplom va esdalik sovg‘alar, shuningdek, ichki moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda, oliy ta‘lim tashkilotining budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan pul mukofotlari bilan taqdirlanadi.

15. Yakuniy bosqichda ishtirok etib g‘oliblikni qo‘lga kirita olmagan barcha ishtirokchilar sertifikat bilan taqdirlanadi.

VII. Yakuniy qoidalar

16. Tanlovning barcha bosqichlari ommaviy axborot vositalari hamda oliy ta‘lim tashkilotlarining ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida keng yoritib boriladi.

17. Tanlovni tashkil etish va ishtirokchilarni baholash bilan bog‘liq kelib chiqadigan nizolar amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda hal etiladi.

**“Eng yaxshi tyutor” tanloviga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish
bo‘yicha universitet tashkiliy (ishchi guruh)
QO‘MITASI TARKIBI**

№	Mas’ullarning FISH	Lavozimi
1	D. Nabiyeu	Universitet rektori, Tashkiliy qo‘mita raisi
2	O. Kuziyeu	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari
3	A.Jo‘rayev	Rektor maslahatchisi, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi
4	N. Pardaqulov	Yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi
5	Sh. Akramov	Ma’naviy va ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi
6	Sh.Karomova	Xotin-qizlar bilan ishlash va psixologik maslahat markazi boshlig‘i, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi
7	A. Shodiyev	Universitet bosh hisobchisi, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi
8	O. Yusupov	Universitet matbuot kotibi, Tashkiliy qo‘mita a‘zosi
9	Fakultet dekanlari	Tashkiliy qo‘mita a‘zosi

**“Eng yaxshi tyutor” tanlovini o‘tkazish bo‘yicha universitet
HAKAMLAR HAY’ATI TARKIBI**

№	Mas’ullarning FISH	Lavozimi
1	O. Kuziyev	Yoshlar masalalari va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, Hakamlar hay’ati raisi
2	A.Jo‘rayev	Rektor maslahatchisi, Hakamlar hay’ati a’zosi
3	Sh. Akramov	Ma’naviy va ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘limi boshlig‘i, Hakamlar hay’ati a’zosi
4	Sh.Karomova	Xotin-qizlar bilan ishlash va psixologik maslahat markazi boshlig‘i, Hakamlar hay’ati a’zosi
5	Sh. Nuriddinov	“O‘zbek mumtoz adabiyoti” kafedrasini mudiri, Hakamlar hay’ati a’zosi
6	S. Mo‘minova	“Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiyot nazariyasi” kafedrasini dotsenti, Hakamlar hay’ati a’zosi
7	N. Umarova	Respublika Yozuvchilar uyushmasining viloyat bo‘limi a’zosi, shoirasi, Hakamlar hay’ati a’zosi
8	S. Shodiyeva	Respublika “Kitobxon” ko‘rik-tanlovi sovrindori, Hakamlar hay’ati a’zosi
	Fakultet dekanlari	Hakamlar hay’ati a’zosi
9	N. Pardaqllov	Yoshlar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, Hakamlar hay’ati kotibi